

## **JISMONIY TARBIYA DARSLARI VA DARS DAN TASHQARI MASHG'ULOTLARDA O'QUVCHILARNI AXLOQIY TARBIYALASH**

**Ilyosboyev Sirojiddin Baxtiyor o‘g‘li**

*ChDPU, maktabgacha boshlang‘ich ta’lim fakulteti 2-bosqich talabasi.*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada jismoniy tarbiya darslari va sinfdan tashqari mashg‘ulotlarda o‘quvchilarni axloqiy tarbiyalash masalasi yoritildi. Jismoniy tarbiya va jismoniy madaniyat jarayonini boshqaradigan, inson vujudiga, jismoniy o`sishga ta`sir qiladigan tabiat qonunlari jismoniy tarbiya nazariyasi va uslubiyotida prinsip-tamoyil nomini olgan.

**Kalit so‘zlar:** jismoniy tarbiya darslari, axloqiy tarbiya, jismoniy mashqlar, sinfdan tashqari mashg‘ulotlar, o‘quvchilar.

Jismoniy tarbiya darslari muktab o‘quv dasturlarining ajralmas qismi bo‘lib, o‘quvchilarga salomatlik va farovonlikni ta’minlaydigan jismoniy mashqlar bilan shug‘ullanish imkoniyatini beradi. Ushbu mashg‘ulotlar jismoniy tayyorgarlikni, vosita mahoratini va sport mahoratini rivojlantirishga, shu bilan birga jismoniy faoliyatga ijobiy munosabatni rivojlantirishga qaratilgan. Jismoniy tarbiyani samarali o‘qitish o‘quvchilarda umrbod jismoniy faoliyatga bo‘lgan muhabbatni rivojlantirishga yordam beradigan sog‘lom tamoyillar va usullarni qo’llashni o‘z ichiga oladi.

Yoshlarimizning jismoniy tarbiya fanini qiziqib o‘rganishi, sport bilan musobaqalari orqali o‘zining mustahkam irodasi, tenglashadigan kuchini mustahkamlash, jasurlik, insonparvarlik, ona Vatanga mehr, muhabbat, sadoqat tuyg‘ularini kamol toptirish ishlarini amalga oshirishda ko‘plab ishlar tashkil qilinmoqda. Binobarin, bunday ishlar o‘quvchi yoshlarni jismoniy tarbiya va sport bilan muntazam shug‘ullanishini kundalik turmush tarziga aylantirishiga yordam beradi.

Muntazam ravishda sport turlari bilan shug‘ullanib borish, shug‘ullanish jarayonida e’tiborli bo‘lish yuzasidan kerakli ma’lumotlarni o‘rgatish, o‘quvchi yoshlarda sport bo‘yicha mukammal bilimlar olishi uchun sharoit yaratish, darsdan keyin bo‘s sh vaqtlarini

unumli o'tkazishga sarflash va foydali tashkil qilishni o'rgatish, jismoniy tarbiya o'qituvchilarining oldida turgan asosiy vazifalardan biri sanaladi

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti SH.M.Mirziyoyev 2021 yilni "Yoshlarni qo'llab-quvvatlash va aholi salomatligini mustahkamlash yilli" deb nom berdilar. Barchamizga ma'lumki jamiyatda sog'lom turmush tarzini shakllantirishda, aholi salomatligini mustahkamlashda jismoniy tarbiya va sportni o'rni beqiyosdir. Mamlakatimizda o'sib kelayotgan yosh avlodning jismoniy va ma'naviy salomatligini shakllantirishni, sog'lom turmush tarziga intilish va sportga mehrmuhabbatni singdirishning g'oyat muhim sharti hisoblanadi.

Aholini ayniqsa yoshlarni jismoniy tarbiya va ommaviy sport bilan shug'ullanishlari, turli sport musobaqalarida ishtirok etishlari orqali yoshlarda o'z irodasi, kuchi va imkoniyatlariga bo'lgan ishonchini oshiradi.

O'sib kelayotgan yosh avlodni har tomonlama aqliy, axloqiy va jismoniy jihatdan rivojlantirishda jismoniy tarbiya va sport muhim ahamiyat kasb etadi va ularda mardlik, vatanparvarlik, sadoqat va halollik tuyg'ularini shakllantirishda yordam beradi.

Davlatimiz rahbari ijtimoiy, ma'naviy-ma'rifiy sohalardagi ishlarni yangi tizim asosida yo'lga qo'yish bo'yicha 5 ta muhim tashabbusni ilgari surdi. Bunda ikkinchi tashabbus yoshlarni jismoniy chiniqtirish, sport sohasida qobiliyatini nomoyon qilishlari uchun zarur sharoitlar yaratishga yo'naltirilgan. Shunday yaratib berilgan imkoniyatlardan foydalanib, o'quvchi yoshlarimizni qiziqishiga qarab sportning turli xil yo'nalshlariga jalb qilib, ulardan yangi championlarni taylorlashimiz zarur.

Shu o'rinda davlatimiz Prezidenti Shavkat Mirziyoyev quyidagi fikrlarini misol qilib keltirmoqchiman "Dunyoda qobiliyatsiz bola bo'lmaydi, biz ana shu qobiliyatni ko'ra olishimiz, taxlil qilib yuksaltirishimiz va shu qatorda o'quvchilarning qobiliyatidan kelib chiqqan holda biror bir kasbga yoki hunarga yo'naltira olishimiz bizning eng asosiy vazifamizdir".

Abu Ali ibn Sino ham insonga xos bo'lgan ijobjiy fazilatlaridan sanab o'tar ekan, quyidagilarga alohida urg'u beradi:

- 1.Jasurlik –biror ishni bajarishda kishining jasurligi, chidamliligi, inson boshiga tushgan yomonlikni to‘xtatib turuvchi quvvat.
2. Aqlilik –biror ishni bajarishda shoshma-shosharlik qilishdan saqllovchi quvvat.
- 3.Ziyraklik –sezgi bergan narsalarning haqiqiy ma’nosini tezlik bilan tushuntirishga yordam beruvchi quvvat.

Alisher Navoiy “Farhod va Shirin” dostonida Farhodning jismoniy qobiliyatlarini alohida ko‘rsatib o‘tadi. Dostonda ta’riflanishicha, Farhod aqliy kamolotga erishish bilangina cheklanib qolmay, jismoniy va harbiy mashqlar yordamida chiniqadi. Suvda suzish, chavandozlik, qilichbozlik vaboshqalar uning kundalik mashg‘ulotiga aylangan. Mutafakkirning fikriga ko‘ra, Farhod 10 nafar 20 yoshli yigitning quvvatiga ega bo‘lgan.

Abdulla Avloniyning fikricha, sog‘lom fikr, yaxshi axloq va ilm-ma’rifatga ega bo‘lmox uchun badan-tarbiya bilan shug‘ullanishi zarur: “Badanning salomat va quvvatli bo‘lmog‘i insonga eng kerakli narsadir. Chunku o‘qimoq, o‘qitmoq, o‘rganmoq va o‘rgatmoq uchun insonga kuchli, kasalsiz vujud lozim.

Sog‘ badanga ega bo‘lmagan insonlar amallarida, ishlarida kamchilikka yo‘l qo‘yurlar. ... Badan tarbiyasini fikr tarbiyasiga ham yordami bordur. Jism ila ruh ikkisi bir choponning o‘ng ila tersi kabitur. Agar jism tozalik ila ziynatlanmasa, yomon xulqlardan saqlanmasa, choponni ustini qo‘yib asatrini yuvib ovora bo‘lmak kabitirki, har vaqt ustidagi kiri ichiga uradur. Fikr tarbiyasi uchun mehnat va sog‘lom bir vujud kerakdur”.

Jismoniy tarbiya kishilarga kuchli ta’sir ko‘rsatib, salomatligini mustahkamlaydi, ishslash qobiliyatini oshiradi, uzoq umr ko‘rishga yordam beradi. Sport har qanday yoshda ham qaddi-qomatni tarbiya qilish kuch-quvvatini saqlab turishning ajoyib vositasidir. Sport dam olish bilan mehnatni almashtirib turish manbai bo‘lib xizmat qiladi. O‘zbekiston Respublikasida sport, shu jumladan, bolalar sportini rivojlantirishga alohida e’tibor qaratilmoqda. Mazkur yo‘nalish davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri sifatida e’tirof etilib, ijobiy ishlar amalga oshirilmoqda. Chunonchi, yoshlarni jismoniy tarbiyalashning kopleks dasturi ishlab chiqildi. Sportning turli yo‘nalishlari bo‘yicha

joylarda ommaviy sport bayramlari, sport musobaqalarning tashkil etilishi ommaviy tus oldi.

Yangi turdag'i o'quv muassasalarda ham o'quvchilar o'rtasida jismoniy tarbiyani samarali tashkil etilishiga e'tibor qaratilmoqda. Jismoniy tarbiya mazmuni o'quvchilarning harbiy chaqiriqqacha tayyorgarligiga erishish bilan uzviy bog'liqdir. Axloqiy tarbiya vazifalari quyidagilardan iboratdir:

Asosiy vazifalar:

1. O'quvchilarga axloqiy bilimlarni berish.
2. Ularda axloqiy tushunchalarni hosil qilish.

3. O'quvchilarda axloqiy his-tuyg'u, axloqiy ong va axloqiy madaniyatni shakllantirish.

Zamonaviy ta'lim jarayonida insonni o'z taqdirini o'zi belgilash o'z-o'zini boshqarish, o'z-o'zini rivojlantirishga yo'naltirilgan ta'lim maydoni yaratilishi zarur. Bu o'smirlarga kelajakda o'z taqdirini o'zi belgilash, shuningdek alkogolizm, giyohvandlik kabi ijtimoiy hodisalardan qochish qobiliyatini tarbiyalaydi. Barcha fan o'qituvchilari zimmasida ta'limiy vazifa bilan birgalikda tarbiyaviy vazifasi o'quvchilarning axloqiy sifatlarini shakllantirishdir. Bola axloqiy sifatlarining shakllanishi, salomatligini mustahkamlash, qobiliyatlarini rivojlantirish kabi uchta tamoyilga asoslangandagina jismoniy tarbiya ta'lim tizimining bir qismi sifatida o'z mazmunini saqlab qoladi. Jismoniy tarbiya va sinfdan tashqari darslarda bolalarda estetik, irodaviy va axloqiy fazilatlar, ya'ni e'tibor, intizom, mulkni hurmat qilish, shuningdek, do'stlik, maqsadlilik, mustaqillik, matonat, qiyinchiliklarni engish, o'zaro yordam ko'nikmalari shakllanadi. Jamiyatda shaxsning barkamol rivojlanishida jismoniy tarbiyaning ahamiyati katta bo'larkan, u shunday shakllantirilishi kerakki, natijada axloq, estetika va ma'naviy hayotning boshqa sohalarining organikelementiga aylanib shundagina shaxs qiyofasida yaxlit namoyon bo'lishi lozim

### **Foydalanilgan adabiyotlar**

- 1.Usmonxo`jayev T. va boshq. Jismoniy tarbiya nazariyasi va uslubiyoti. T“Oqituvshi”2004 y.
2. Зайсев А. А. Основные составляющие спортивной тренировки: метод. рек. по спецкурсу «Теория спорта высших достижений». - Калининград: Изд-во Калининградского университета, 2007 г.
3. V.SH.Karaev. Jismoniy tarbiya o‘qituvchilarida kasbiy kompitentlikni rivojlantirishning nazariy-pedagogik asoslarini takomillashtirish..//ped.fan.falafa dok. diss.CHirchiq.2022.
4. L.V.CHepikova. Pedagogicheskie usloviya vospitaniya osnovo nравственной культуры и детей старшего дошкольного и младшего школьного возраста. Avtoreferat.diss.kand nauk.13.00.01.Smolensk-2007.
5. Navoiy, Alisher. Asarlar. O‘n besh tomlik. O‘n uchinchi jild. –Toshkent: G‘ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti, 1966.6. Avloniy, Abdulla. Turkiy guliston yohud axloq. –Toshkent, O‘qituvchi, 1992.
6. Farmanov, T., Yuldasheva, N., Tursunov, I., Madumarova, Z., & Mirkurbanova, R. (2023). Application of game theory simulation in the management of an agro-industrial enterprise. In E3S Web of Conferences (Vol. 420, p. 08011). EDP Sciences.
7. Durmanov, A., Madumarov, T., Abdulkhayeva, G., Shermukhamedov, A., & Baltashov, S. (2023). Environmental aspects and microclimate in greenhouses in the republic of Uzbekistan. In E3S Web of Conferences (Vol. 389, p. 04002). EDP Sciences.